



**SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI
RIVOJLANTIRISH ASOSIDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH
YO'NALISHLARI**



Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna
Geologiya Fanlari Universiteti i.f.f.d (PhD)
E-mail: shaxnozadoniyorova@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish, yengil sanoat mahsulotlari hajmini ko'paytirish shuningdek yengil sanoat tarmog'ini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha olib borilayotgan islohotlarni yanada jadallashtirish borasida olib borilayotgan islohatlar yoritib berilgan. Sanoat tarmoqlarining keyingi o'n yil ichida yuqori darajada shakllanishi va buning natijasida O'zbekiston dunyoning sanoati takomillashgan davlatlar safidan o'rın olayotganligi ochib berilgan. O'zbekistonda yengil sanoatning rivojlanishi va tayyor maxsulotlar eksport saloxiyatinig yildan yilda oshib borayotganligi statistik ma'lumotlar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: sanoat tarmog'i, ishlab chiqarish, modernizatsiya, innovatsiya, tannarx, korxona, sanoat iqtisodiyoti, samaradorlik, mehnat resurslari, mehnat resurslaridan samarali foydalanish, korxona boshqaruvi, kadrlar tizimi, eksport darajasi.


Jahonning sanoat sohasi rivojlangan davlatlarida resurs tejash texnologiyalaridan keng foydalangan holda xarajatlarni kamaytirish; mahsulot assortimentining kengaytirish va tannarxini pasaytirish; zamonaviy milliy sanoat mahsulotlarini ishlab qarishni shakllantirish maqsadida institutsional, huquqiy va investitsion muhitni yaratish, sanoat korxonalarini iqtisodiy rag'batlantirish, modernizatsiyalash, iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, moliyaviy barqarorlik holatini ushlab turish dolzarb masalalardan biridir.

So'nggi yillarda respublika yengil sanoatining mahalliy mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish tendentsiyasi kuzatilmoqda, ammo bozorning doimiy sig'imi bilan ishlab chiqarish hajmining o'sishi raqobatning kuchayishiga olib keladi va shuning uchun mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlash deyarli barcha mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun dolzarb muammoga aylanmoqda.

Yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish hozirgi davrning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki bu respublika byudjetiga valyuta tushumlarini ko'paytirishning muhim manbalaridan biridir. So'ngi yillarda yengil sanoat korxonalarining o'rtacha yillik quvvati paxtani qayta ishlash bo'yicha 460 ming tonnani, ip-kalava ishlab chiqarish 325 ming tonnani, trikotaj ip ishlab chiqarish 80 ming tonnani, mato ishlab chiqarish 276 million kvadrat metrni, trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish


256 million donani, tikuvchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 10 million donani, shoyi-ipak iplarini ishlab chiqarish 2 million tonnani tashkil etadi.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida respublikada to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 12,9 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,4 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 71 121,1 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



1.1-rasm. O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi¹

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida respublika kiyim ishlab chiqarishining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,1 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 109,9 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 22 478,3 mlrd. so'mga to'g'ri keldi. Mazkur keltirilgan tahlillardan shuni xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda yengil sanoat tarmog'ini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha olib borilayotgan islohotlarni yanada jadallashtirish va ularning samaradorligini oshirish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlarning mohiyati va tamoyillarini tahlil qilish hamda modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonlarining nazariy va metodologik asoslarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.



1.2-rasm. O'zbekiston Respublikasi kiyim ishlab chiqarishining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi²

¹ O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligining 2023 yila ma'lumotnomasi

² O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligining 2023 yila ma'lumotnomasi

Yengil sanoat ko'plab turdosh tarmoqlar bilan bog'langan va butun xalq xo'jaligi kompleksiga xizmat qiladi. Yengil sanoatning asosiy xususiyati ishlab chiqarishga qo'yilgan mablag'larning yetarlicha tez qaytarilishi va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turining "minimal" xarajatlar bilan tez o'zgarishidir.

Yengil sanoat iqtisodiyot tarmog'i sifatida davlat byudjetlarini shakllantirishda bevosita ishtirok etadi. Yengil sanoat investitsion jozibador hisoblanadi, chunki investitsiyalar quyidagi sabablarga ko'ra o'zini tezroq oqlaydi:

- investitsiyalarning tez qaytarilishi, bu tez aylanmasi (yiliga 3-4 marta) hisobiga olingan va subsidiyalangan mablag'lardan samarali foydalanish imkonini beradi;
- mahsulot ishlab chiqarish va sotishning qisqa muddatlari;
- korxonalarning ishlab chiqarish va texnologik imkoniyatlarining yuqori harakatchanligi talab va modaning mavsumiy o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan bozor o'zgarishlarida soliq imtiyozlarini kamaytirmasdan, ishlab chiqarish hajmini va shunga mos ravishda sotish hajmini kamaytirmasdan, mahsulot turlarini tezda o'zgartirishga imkon beradi;
- mahalliy xomashyoning (paxta, ipak) mavjudligi;
- potentsial bozor sig'imi.

Ilmiy salohiyatni jadal rivojlantirish hisobiga yengil sanoatning rivojlanishini ta'minlash, bu sohani modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash, salohiyatini optimallashtirish va zarur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, yengil sanoatni rivojlantirishning yangi bosqichini doimiy yuksaltirish bilan belgilab beradi.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida yengil sanoat korxonalarini rivojlantirish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar, jumladan, kimyoviy tola va iplardan shakl saqlovchanlik xususiyati yuqori bo'lgan, zamonaviy gazlamalar va xomashyo sarfini qisqartirish imkonini beradigan "engillashtirilgan" trikotaj mahsulotlarini yaratish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga imkon beradigan ilg'or texnika va texnologiyalarni tadqiq qilish bo'yicha keng ko'lamli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Respublikamizda soha doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar ko'lami yengil sanoat mahsulotlari hajmini yildan-yilga oshirishning istiqbolli rejalarini tatbiq etmoqda. Jumladan, yengil sanoatning 2023-2030 yillardagi rivojlanishining maqsadli prognoz ko'rsatkichlariga muvofiq, mazkur sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2030 yilga qadar 6,9 trln.so'mni tashkil etishi, bunda ip-kalava ishlab chiqarish hajmi 2,5 barobarga, gazlama ishlab chiqarish hajmi 2,8 barobarga, shoyi gazlama ishlab chiqarish hajmi 2,7 barobarga, noto'qima matolar ishlab chiqarish hajmi 1,5 barobarga, trikotaj matolar ishlab chiqarish hajmi esa 2,7 barobarga ortishi belgilanganligi yuqori ahamiyatga molikdir.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, yengil sanoat respublika eksport salohiyatini oshirish nuqtai nazaridan eng istiqbolli soha hisoblanadi. Shuning uchun sohaga investitsiyalarni jalb qilish hamda ichki ishlab chiqarishni rag'batlantirish siyosati amalga oshirilmoqda. 2015-yildan 2018-yilgacha bu sanoatga qo'yilgan investitsiyalarning umumiyligi salmog'i -22,4 foizdan 27,1 foizgacha, ya'ni 4,7 foizga ortdi. Asortiment siyosatini shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan ko'rgazmalar va yarmarkalar ham axborot manbasi sifatida muhim o'rinni egallaydi.

Chet el investitsiyalari va texnologiyalarini jalg etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, ilg'or xorij tajribasi asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan samarali siyosat yuqori ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga erishishga xizmat qilayotganligi ta'kidlandi.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida yengil sanoat tizimi korxonalarining moddiy-texnik jihatdan qo'llab-quvvatlanishi va ishlab chiqarish doirasining kengaytirilishi borasida olib borilayotgan uzviy chora-tadbirlar mazkur soha korxonalari tomonidan tayyorlanayotgan mahsulotlar hajmini respublika yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishining hamda milliy eksport umumiylajmida salmoqli o'rinni egallashiga zamin yaratmoqda (3.2-jadval).

1.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti va eksporti hajmida yengil sanoat korxonalari mahsulotlarining ulushi³

Yillar	Ko'rsatkichlar		
	YaIM hajmi, amaldagi baholarda mlrd. so'm	Yengil korxonalari mahsulotlari mlrd. so'm	Yengil sanoat hajmi, mlrd. so'm
2013	28 190,0	2 532,8	9,0
2014	38 969,8	2 993,8	7,7
2015	49 375,6	3 436,0	7,0
2016	62 388,3	4 593,1	7,4
2017	78 764,2	5 640,7	7,2
2018	97 929,3	6 566,6	6,7
2019	120 861,5	8 469,3	7,0
2020	145 846,4	10 570,5	7,2
2021	171 369,2	15 782,0	9,2
2022	199 325,1	19 652,2	9,9
2023	249 100,0	24 565,25	9,9

Mazkur 1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, 2013-2023 yillar mobaynida yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida o'sish kuzatilsa-da (yillik o'rtacha o'sish 1,7 mlrd. so'mni tashkil etgan), bunday mahsulotlarning mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmidagi salmog'i 2023 yilga qadar pasayib borish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Ushbu holat esa mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot tarkibining keng miqyosda diversifikatsiya qilinishi bilan bog'liqdir. Bu esa respublikamizda yengil sanoat mahsulotlari xomashyo zaxirasining ko'pligi, ishlab chiqarish imkoniyatlari (ishchi kuchi arzonligi, ishlab chiqarish uskunalarining yangilanish darajasi tezligi va h.k.)ning yuqoriligi hamda sohaga e'tibor qaratilayotganligi sababli tayyor yengil sanoat mahsulotlari hajmini oshirishga erishish maqsadga muvofiq ekanligidan dalolat beradi.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Hozirgi kunda ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning asosiy maqsadi resurs tejamkor texnologiyalarni mehnat jarayonlariga qo'llash orqali samaradorlikka erishish hisoblanadi. Sanoat korxonalarida resurs tejamkor texnologiyalarga qayta tiklanadigan energiya va ikkilamchi resurslardan foydalanish, chiqindilarni utilizatsiya qilish, tabiiy resurslarni tejaydigan va atrof-muhit ifloslanishining oldini oladigan energiyani qayta tiklash kiradi.

Resurs tejovchi texnologiya ishlab chiqarishni tashkil etish bo'lib, unda chiqindilar minimallashtirish va real ikkilamchi moddiy resurslarni qayta ishslash hisoblanadi. Resurslarni tejash texnologiyasi yopiq material va energiya oqimlari bilan optimal texnologik sxemalarni yaratishni o'z ichiga oladi. Biroq resurslardan oqilona foydalanishning sanoat texnologiyalari hali barcha tarmoqlar uchun ishlab chiqilmagan, buning uchun iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlar yaratilmagan. Bu vazifani bugungi kunda real iqtisodiy faoliyatga kirib kelayotgan avlod hal qilishi kerak.

Resurs tejovchi texnologiyalarni iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida keng qo'llash atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyatini takomillashtirish, atrof-muhitga zarar yetkazilishining maksimal darajada oldini olishni ta'minlashning hal qiluvchi omiliga aylanishi kerak.

Resursni tejovchi texnologiyalar qisqa vaqt ichida o'zini oqlab, xom ashyo birligiga, shuningdek, bunday texnologik jarayonlarning yuqori darajada avtomatlashtirilganligini hisobga olgan holda, mehnat sarfi birligiga nisbatan eng yuqori yakuniy mahsulot hosilini ta'minlaydi.

Atrof-muhitni muhofaza qilishning eng samarali usuli yangi resurs tejovchi texnologiyalarni yaratish bo'lishiga qaramay, eski texnologiyalar ham tabiiy

resurslarni tejash uchun katta zahiralarga ega, ular orasida:

- xom-ashyoni pirovard mahsulot sifatini o'zgartirmasdan kamroq chiqindi ishlab chiqaradigan ilg'orlari bilan almashtirish;

- yakuniy mahsulotni iste'mol xususiyatlarini buzmasdan o'zgartirish;

- mahsulotni ishlab chiqarishning texnologik jarayonini o'zgartirish; foydalanish kabi jihozlarni takomillashtirish;

- suyuqliklarni moylash vasovutish uchun yanada ilg'or yig'ish va tozalash tizimlari, qatlam va rulonli materiallardan qismlarni eng samarali kesish va kesish imkonini beruvchi texnologiyalardan foydalanish;

- uskunalardan foydalanish va texnik xizmat ko'rsatishni yaxshilash, chiqindilar miqdorini kamaytirishni ta'minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 12 oktyabrdagi "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-169-sonli Farmoni.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagagi "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son Farmoni.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagagi "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-307-son Qarori.

4. Kuzieva N.R. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning moliya va kredit mexanizmini takomillashtirish. – Monografiya. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2006. – 296 b.
5. Xomitov K.Z., Avazov A.J. Qayta ishslash sanoati korxonalarida ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili. // -Toshkent. "Ilm-fan va innovatsion rivojlanish". Ilmiy jurnal. № 4, 2020 yil, 78-88 betlar.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

